

TERMINOLOGIYA VA UNING NAZARIY TADQIQOTLARIDAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

ALIYEV OYBEK DAVLATJON O'G'LI

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XORIJIY FILOLOGIYA FAKULTETI 4-KURS TALABASI

ILMIY RAHBAR: YULDASHOVA A.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan termin va terminologiya fenomenining nazariy-lisoniy asoslari hamda ularni tahlil qilishning metodologik tamoyillari atroflicha o'rganiladi. Maqolada "termin" tushunchasining ta'rifi, uning fan tilidagi o'rni va ilmiy jarayonlarda talqin qilinishining tarixiy-tadrijiy jarayonlari to'g'risida so'z yuritiladi. Shuningdek, jahon tilshunosligida tan olingan turli ilmiy maktablar va olimlarning terminologik birliklar tabiati, ularning semantik-funksional xususiyatlari borasidagi konseptual qarashlari qiyosiy o'rganiladi. Terminologik qatlamning shakllanishi, rivojlanish qonuniyatlari hamda muayyan fan sohalari turkumidagi o'rni ilmiy nuqtai nazardan muhokama etiladi. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad - terminologik birliklarni tizimlashtirish, ularni me'yorlash va lisoniy qurilishini takomillashtirishning ilmiy-nazariy modelini ishlab chiqishga hissa qo'shishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: Termin, terminologiya, atama, leksik tizim, lingvistik standartlashtirish, terminologik tahlil, denotatsiya, emotsionallik va ekspressivlik, umumleksik qatlam.

Insoniyatning intellektual salohiyati va ma'naviy-madaniy taraqqiyoti o'zining eng yorqin in'ikosini tilda topadi. Til - xalqning moddiy borlig'i va ma'naviy dunyosini mujassam etuvchi universal lisoniy ko'zguvchi. Shu boisdan ham ijtimoiy hayotda yuz beradigan har qanday modifikatsiya, ilmiy kashfiyotlar yoki texnologik yangilanishlar, birinchi navbatda, tilning lug'at tarkibida o'zining nomlash ifodasini topadi. Tilning leksik

qatlami turg'un hodisa emas, balki jamiyatning tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga hamohang ravishda dinamik tarzda boyib va takomillashib boruvchi murakkab tizimdir.

Muayyan xalqning lisoniy merosi o'sha millatning moddiy va ma'naviy olamini butun borlig'icha aks ettiruvchi, o'tmishi va bugunini bog'lovchi yorqin intellektual ko'zgu hisoblanadi. Til insoniyatning ham mehnat, ham ijtimoiy faoliyati bilan uzviy va fundamental ravishda bog'liqdir. Shu sababli, jamiyat hayotining turli jabhalarida sodir bo'layotgan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy voqelik yoki jadal o'zgarishlar, eng avvalo, tilda o'zining bevosita nominativ in'ikosini topadi. Tarixiy taraqqiyot va ijtimoiy rivojlanish jarayonida tilning lug'at tarkibi tadrijiy ravishda doimiy rivojlanib, miqdoriy jihatdan boyib borishi kuzatiladi. Ushbu boyish jarayoni jamiyat taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan yangi kontseptual tushunchalarni ifodalovchi yangi leksik birliklar va nomlarning vujudga kelishi hisobiga amalga oshadi. Zamonaviy tilda yangi paydo bo'layotgan so'zlarning asosiy va salmoqli qismini aynan terminologik birliklar tashkil etadi. Fan va texnologiya sohasidagi mislsiz o'sish bir tomondan yangi terminlarni hayotga olib kelsa, ikkinchi tomondan, ushbu terminlarning o'zi fan va texnika taraqqiyoti uchun zaruriy ilmiy zamin yaratadi. Zero, terminologik jihatdan tizimlashtirilmagan va ilmiy asosda ishlab chiqilmagan fan yoki ishlab chiqarish sohasi o'zining kutilgan rivojlanish darajasiga ko'tarila olmaydi.

Etimologik nuqtai nazardan "termin" tushunchasi lotincha "terminus" so'zidan olingan bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri "chegara", "chek-chegara belgisi" yoki "chek" kabi semantik ma'nolarni anglatadi. Ilmiy nuqtai nazardan esa, fan, texnika yoki ijtimoiy faoliyatning muayyan sohalariga oid tushunchani aniq va lo'nda ifodalaydigan, qo'llanish doirasi faqatgina shu soha chegaralari bilan cheklangan so'z yoki barqaror birikmalar termin deb yuritiladi. Terminlar o'zining semantik tabiati bilan kundalik umumiste'moldagi so'zlardan tubdan farq qiladi¹.

Terminologiya tushunchasining o'zi ilmiy yoki texnik tildagi barcha atamalar majmuasini anglatuvchi mukammal tizimdir. Taniqli tilshunos O.S. Axmanova ushbu

¹ Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2019. – B. 57-58.

hodisaga quyidagicha ta'rif beradi: "Terminologiya - bu leksikaning maxsus qatlamini tashkil etuvchi, ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasi, faoliyat sohasi yoki fan tarmog'iga oid atamalar yig'indisidir"². Bunday o'ziga xoslik sababli terminologik leksika ongli ravishda tartibga solinadi. Ularning ma'nolari kundalik oddiy bilimlardan farqli o'laroq, qat'iy ilmiy ta'rif bilan belgilanadi va maxsus belgilar tizimini ifodalaydi.

Terminshunoslikning mustaqil ilmiy fan sifatida shakllanish tarixi o'tgan asrning 20-yillariga borib taqaladi. Dastlabki bosqichlarda olimlar ushbu sohani leksikologiyaning bir tarkibiy qismi sifatida baholashgan. Biroq, avstriyalik atoqli olim O. Vyuster 1931-yilda o'zining texnik tildagi leksik birliklarga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgach, terminshunoslik alohida fan tarmog'i sifatida e'tirof etila boshlandi. Vyuster dunyodagi birinchi terminshunoslik maktabiga asos soldi, uning ilmiy an'alarini esa shogirdi H. Felber muvaffaqiyatli davom ettirdi. Aynan H. Felber terminologiya sohasidagi jahon miqyosidagi ilk xalqaro o'quv qo'llanma hisoblangan "Terminology Manual" asarining muallifi sifatida tanilgan.

O'zbek tili leksikologiyasining zamonaviy taraqqiyot bosqichida "atama" va "termin" lisoniy birliklari parallel ravishda, ya'ni yonma-yon qo'llanilib kelinmoqda. Ayrim ilmiy tadqiqotlarda va amaliy muloqot jarayonlarida ushbu birliklarga sinonim sifatida arab tilidan o'zlashgan "istiloh" so'zi ham faol jalb etiladi. Biroq, fundamental tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashilganda, mazkur tushunchalar o'rtasida o'ziga xos semantik va funksional farqlar mavjudligi ayon bo'ladi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, "atama" birligini ilk bor buyuk ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat o'zining 1927-yilda nashrdan chiqqan "Nahf" asarida ilmiy muomalaga kiritgan. Shunga qaramasdan, ushbu so'z faqatgina XX asrning 90-yillariga kelibgina, milliy o'zlikni anglash va til islohotlari natijasida keng iste'mol doirasiga kirdi. Unga qadar bo'lgan davrdagi ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarda, asosan, baynalmilal xarakterga ega bo'lgan "termin" so'zidan foydalanish ustuvorlik qilgan.

² Axmanova O.C. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 48-49.

Taniqli leksikograf olim A.Hojiyev o‘zining "Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati" asarida ushbu tushunchaga mukammal ta’rif beradi: "Termin - etimologik jihatdan lotincha terminus (chek, chegara, chegara belgisi) ma’nosini anglatib, fan, texnika va boshqa ijtimoiy-kasbiy sohalarga oid tushunchalarni o‘ta aniqlik bilan ifodalaydigan, qo‘llanish ko‘lami aynan shu sohalar bilan cheklangan maxsus so‘z yoki barqaror birikmadir"³. Shuningdek, terminlar o‘zining semantik qat’iyligi, ya’ni bir ma’noli bo‘lishi, nutqiy ekspressivlik va emotsional bo‘yoqlardan xoli ekanligi kabi belgilari bilan umumiste’ moldagi leksik qatlamdan ajralib turadi.

A.Hojiyev o‘z vaqtida "termin" so‘zini sun’iy ravishda "atama" yasamasi bilan to‘liq almashtirish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligini, buning natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan lingvistik muammolar va salbiy oqibatlarni alohida ta’kidlab o‘tgan edi. Zamonaviy terminologik tadqiqotlarda, xususan A. Madvaliyev qarashlarida, ushbu birliklarni quyidagicha tizimlashtirish o‘zini oqlashi e’tirof etilgan.

Terminologiyaning tabiatini ochib berishda jahon olimlarining yondashuvlari ham g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Masalan, G.O. Vinokurning kontseptual qarashlariga ko‘ra, terminlar - bu tub mohiyati bilan maxsus so‘zlar emas, balki "maxsus vazifani bajarishga yo‘naltirilgan so‘zlardir"⁴. Ushbu ta’rif terminni oddiy lug‘aviy birlikdan farqlashda juda qimmatli bo‘lib, unda terminning lisoniy tabiati emas, balki uning aniq bir kontekstda bajaradigan funksional xususiyati birlamchi ekanligi ko‘rsatiladi.

Yana bir atoqli olim A.S. Gerd termin tabiatini ilmiy tushuncha bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganadi. Uning fikricha, termin ma’nosi ilmiy tushunchaning faqatgina eng muhim va asosiy belgilarini o‘zida mujassam etadi. Olim termin ta’rifida ifodalangan ma’no, muayyan bilimlarni maksimal darajada to‘liq va aniq modellashtirish imkonini beruvchi eng samarali metodologik vosita ekanligini alohida uqtirib o‘tadi⁵.

³ Хожиев А. Термин танлаш мезони. –Тошкент, 1996. – Б. 22-23.

⁴ Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в Русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник Статей по языкознанию. – М., 1961. – С. 8-10.

⁵ Герд А.С. Значение термина и научное знание // Научно-техническая информация. Серия 2. – М., 1991. №10. – С. 5-7.

O.S. Axmanovanning metodologik qarashlariga ko'ra, terminologik tizimning shakllanishi muayyan fan sohasining taraqqiyot darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Olimaning ta'kidlashicha, terminologiya fanning eng yuqori rivojlanish bosqichida, ya'ni muayyan tushuncha qat'iy ilmiy ifoda kasb etganidan keyingina rasman tan olinadi. Bu borada terminologiyaning vujudga kelishi bilan bog'liq mulohazalar alohida ahamiyatga ega bo'lib, bunga kimyo fanidagi maxsus birliklarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, "laboratoriya", "kislrod" va "vodorod" kabi terminlar aynan kimyo fani mustaqil fan sifatida tan olinishi va chuqur tadqiq etilishi natijasida iste'molga kirib kelgan. Terminni oddiy so'zdan farqlashning fundamental mezon - bu uni ilmiy asosda ta'riflash imkoniyati mavjudligidadir. Demak, har qanday fan tarmog'ining o'sishi tabiatda mavjud bo'lgan yoki yangi yaratilgan tushunchalarni nomlash uchun yangi terminologik ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

V.G. Gak terminning definitiyasini berish bilan bir qatorda, uning mohiyatini lisoniy tizim nuqtai nazaridan ochib beradi va terminning til lug'at boyligidagi o'rnini aniqlaydi. Olim ilmiy tadqiqotlarda terminga lug'aviy birliklarning alohida, mustaqil turi sifatida qaralishiga nisbatan o'z e'tirozini bildiradi. Buning o'rniga u "termin-funksiya" g'oyasini ilgari surib, terminologiyani leksik birliklar qo'llanishining o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida baholashni taklif etadi. Gakning konseptual qarashlaridan shuni anglash mumkinki, u terminlarni alohida statik lug'at turi sifatida qabul qilmaydi, balki ularni maxsus funksional vazifani bajaruvchi dinamik birliklar deb hisoblaydi⁶. Bu g'oya o'z mohiyatiga ko'ra Vinokurning terminlar haqidagi mulohazalari bilan deyarli bir xil asosga ega.

Hozirgi zamon tilshunosligida yangi terminologik birliklarning paydo bo'lishi, ularning amaliyotga tadbiiq etilishidagi to'siqlar, shuningdek, yasalish qonuniyatlari va usullari borasida turfa xil nazariy qarashlar mavjud. Bugungi kunda termin talqinining quyidagi prinsiplari keng e'tirof etilmoqda:

⁶ Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. – М.: МГУ, 1972. – С. 70-72.

1) substantsional nuqtai nazar: ushbu yoʻnalish vakillari termini maxsus nominativ birlik sifatida baholaydi. Ularning fikricha, termin boshqa leksik birliklardan oʻzining qatʼiy bir maʼnoliligi (monosemiya), semantik aniqligi, tizimlili, kontekstga bogʻliq emasligi va emotsional-ekspressiv jihatdan mutlaq neytralligi bilan ajralib turadi.

2) funksional nuqtai nazar: bu yondashuvga koʻra, terminlar alohida leksik qatlam emas, balki maxsus vazifa yuklatilgan soʻzlardir. Bunda terminning oʻrnini maxsus kontekstda istalgan umumisteʼmoldagi soʻz egallashi mumkin deb hisoblanadi⁷.

3) derivatsion nuqtai nazar: mazkur prinsip terminlarning yasali va shakllanish jarayonlari bilan bevosita aloqador. Ushbu gʻoya tarafdorlari termini nafaqat oddiy soʻzning maxsus varianti, balki yangi spetsifik belgilarga ega boʻlgan, ongli ravishda yasalgan mustaqil birlik sifatida eʼtirof etishadi.

Yangi terminologik qatlamning shakllanishining asosiy omili - bu jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi realiyalar va ilmiy tushunchalarni lisoniy ifodalashga boʻlgan obyektiv ehtiyojdir.

Ilmiy terminologiyaning mohiyatini tushunish uchun uning oʻziga xos xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish lozim. T. Shippan va boshqa tadqiqotchilarning qarashlariga tayanib, terminlarning quyidagi fundamental atributlarini ajratib koʻrsatish mumkin:

1. Konseptual aniqlik va nazariy asoslanganlik.

Terminlar muayyan bir ilmiy nazariya doirasida qatʼiy chegaralangan va kontseptual jihatdan aniqlangan maxsus birliklardir. Ularning ahamiyati va semantik yuklamasi bevosita ushbu nazariya tizimida oʻrganilayotgan obʼyektning mohiyatini anglash orqali belgilanadi. Oddiy soʻzlardan farqli oʻlaroq, terminlar ilmiy obʼyektning subʼyektiv yoki hissiy xususiyatlarini emas, balki uning obyektiv va mantiqiy jihatlarini aks ettirishga xizmat qiladi⁸.

2. Terminologik tizimning elementar birligi.

⁷ Madvaliyev A. Oʻzbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi, 2017. – B. 29-30.

⁸ Schippan T. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1992. – S. 127.

Har bir termin o‘zi mansub bo‘lgan fan sohasining sistematikasiga bo‘ysunuvchi murakkab tizimning bir bo‘lagidir. Terminologik tizim fanning ichki mantiqiy tartibiga amal qilgani bois, u tushunarlik va aniqlik prinsiplarini birinchi oringa qo‘yadi. Shu sababli, terminlarda nutqning ta’sirchanligi, emotsionalligi yoki pragmatik ekspressivlik kabi sub’yektiv elementlardan chekinish tendentsiyasi kuzatiladi. Terminning eng ustuvor sifat mezonlari uning o‘ziga xosligi va semantik aniqligidir.

3. Kontekstual ta’rif va strukturaviy bog‘liqlik.

Terminologik birlikning ma’nosi, odatda, muayyan bir ilmiy kontekst yoki ta’rif orqali reallashadi. Bunday ta’riflar ko‘pincha kopula jumla shakliga ega bo‘lib, unda termin asosiy tushuncha (subyekt) vazifasini bajaradi. Masalan, "zanjir" termini lingvistikada "lisoniy elementlar yoki kategoriyalarning chiziqli ketma-ketligi" sifatida ta’riflanadi. Lug‘at va ilmiy manbalarda lemma (termin) hamda uning ta’rifi texnologik jihatdan ajratib ko‘rsatilgani bois, ayrim hollarda bog‘lovchi (kopula) tushirib qoldirilishi ham mumkin⁹.

4. Ma’no dinamikasi va variantivlik muammosi.

Terminlarning semantik qobig‘i turg‘un emas. U fan taraqqiyoti bilan birga evolyutsion o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Yangi ilmiy gipotezalarni tekshirish, ularni tasdiqlash yoki rad etish (qalbakilashtirish) jarayonlari bevosita terminologiya tizimiga va uning tarkibiy qismlariga ta’sir ko‘rsatadi. Garchi terminologik ishning mohiyati mutlaq aniqlikka intilish bo‘lsa-da, amaliyotda terminlar orasida omonimiya, polisemiya va hatto sinonimiya kabi lisoniy hodisalar uchrab turadi, bu esa terminologik qat’iyatlik tamoyillariga ma’lum ma’noda qarama-qarshi keladi.

5) Uslubiy betaraflik (neytrallik).

Terminologik birliklar o‘z tabiatiga ko‘ra uslubiy betaraflikka kuchli moyillik ko‘rsatadi. Ular har qanday uslubiy bo‘yoqdan xoli bo‘lib, axborotni faqatgina mantiqiy-semantik tarzda yetkazib berishga mo‘ljallangan.

6) Sohaga oid differentsiatsiya.

⁹ To‘rayeva U. Tilshunoslikda terminologiya va termin tushunchalari // Til va adabiyot ta’limi jurnali. – Toshkent, 2021. №8. – B. 33.

Aniq, texnik va gumanitar fanlar terminologiyasi o‘zaro farqlanadi. Bu tafovutlar, asosan, denotatsiyalar tabiatidan kelib chiqadi. Gumanitar va falsafiy fanlarda ishlatiladigan terminlar ko‘p hollarda omonimlik xususiyatiga ega bo‘ladi, chunki turli ilmiy maktablar doirasida bitta termin turlicha ta’riflanishi mumkin. Masalan, "demokratiya", "erkinlik" yoki "shaxs" kabi tushunchalarning talqinlari xilma-xilligi ushbu sohalarning sub’yektiv-nazariy xususiyati bilan izohlanadi¹⁰.

7) Standartlashtirish.

Tabiiy va texnik fanlar terminologiyasi, gumanitar sohadan farqli o‘laroq, baynalmilallashuv, standartlashtirish va terminologik bir xillikka intiladi. Biroq, fanni standartlashtirish jarayoni faktlarni va lingvistik sharoitlarni ham me’yorlashtirishni taqozo etadi. Termin mavjud texnik va lisoniy muhitga moslashishi, shu bilan birga tilning rivojlanishiga turtki berishi kerak. Standartlashtirish jarayoni ko‘pincha "naturalizatsiya" hodisasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ba’zan qat’iy me’yorlar va tabiiy iste’moldagi atamalar o‘rtasida o‘zaro ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin¹¹.

Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan nazariy mulohazalar va ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda shuni xulosa qilish mumkinki, til tizimidagi har qanday leksik birlik ham terminologik maqomga ega bo‘la olmaydi. Lisoniy birlikning haqiqiy termin sifatida tan olinishi uchun u muayyan qat’iy talablar va mezonlarga to‘liq javob berishi zarur. Xususan, terminlar uchun ko‘p ma’nodlilik xos xususiyat emasligi, ularning semantik jihatdan chegaralanganligi hamda har qanday emotsional-ekspressiv bo‘yoqdan xoli ekanligi terminologik tizimning barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardir.

Zamonaviy taraqqiyot va shiddatli ilmiy-texnik inqilob natijasida jamiyat hayotida yangi sohalarning vujudga kelishi, o‘z navbatida, ushbu sohalarga doir yangi lisoniy qatlamlarning shakllanishiga olib keladi. Bu esa tabiiy-tarixiy jarayon bo‘lib, tilning lug‘at tarkibi doimiy yangilanishda ekanligidan dalolat beradi. Dastlab neologizm yoki oddiy nom sifatida kirib kelgan so‘zlar vaqt o‘tishi bilan nutqda maxsus funktsional vazifani o‘z

¹⁰ Sharipov O‘., Yo‘ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. – B. 112.

¹¹ Schippan T. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1992. – S. 117.

zimmasiga oladi va sohaviy terminologik tizimlarga integratsiyalashadi. Natijada, fanning turli tarmoqlarida terminlarning yangi konseptual guruhlari shakllanadi.

Ta'kidlash joizki, bunday terminologik birliklarning bir qismi vaqt o'tishi bilan determinologiya jarayonini boshdan kechirib, kundalik hayotda keng ommalashib ketsa, boshqa bir qismi faqatgina tor doiradagi maxsus sohalarda (masalan, raqamli texnologiyalar yoki internet tili kabi spetsifik muhitlarda) o'zining professional qo'llanish barqarorligini saqlab qoladi. Shunday qilib, terminologiya nafaqat fanning tayanchi, balki tilning ijtimoiy va texnologik ehtiyojlarga moslashuvchanligini ko'rsatuvchi muhim indikator bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. -С. 320.
2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в Русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник Статей по языкознанию. – М., 1961. – С. 7-10.
3. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. – М.: МГУ, 1972. – С. 178.
4. Герд А.С. Значение термина и научное знание // Научно-техническая информация. Серия 2. – М., 1991. №10. – С. 1-4.
5. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2019. -B. 160.
6. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2017. – B. 227.
7. Sharipov O'., Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2006. -B. 187.
8. To'rayeva U. Tilshunoslikda terminologiya va termin tushunchalari // Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2021-yil 8-son. – B. 172.
9. Ҳожиёв А. Термин танлаш мезони. 1996. – Б. 182.

10. Schippan T. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1992. – S. 230.